



XX ASR INGLIZ AYOLLAR NASRINING BA’ZI NAZARIY MASALALARI

Kozokova Charos

Samarqand davlat chet tillar instituti o‘qituvchisi

Annotatsiya. Maqola XX asr ingliz ayollar nasrining xususiyatlarini nazariy adabiyotshunoslik nuqtai nazaridan o‘rganishga bag‘ishlangan. Asosiy rivojlanish tendensiyalari aniqlanadi, ingliz tilidagi ayollar nasri poetikasining asosiy xususiyatlari umumlashtiriladi, masalan, shakl bilan tajribalar, mavzularni rivojlantirish, feminizm bilan aloqalar va boshqalar.

Kalit so‘zlar: ayollar nasri, adabiy harakat, xotin-qizlar muammosi, oila munosabatlari, ayol va jamiyat.

НЕКОТОРЫЕ ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ВОПРОСЫ АНГЛИЙСКОЙ ЖЕНСКОЙ ПРОЗЫ XX ВЕКА

Аннотация. Статья посвящена исследованию особенностей английской женской прозы XX века в аспекте теоретического литературоведения. Выявлены основные тенденции развития, обобщены основные особенности поэтики англоязычной женской прозы, как эксперименты с формой, разработкой тем, связь с феминизмом и др.

Ключевые слова: женская проза, литературное течение, женский вопросы, семейные отношения, женщина и общество.

SOME THEORETICAL ISSUES OF 20TH CENTURY ENGLISH WOMEN'S PROSE

Abstract. The article is devoted to the study of the characteristics of English women's prose of the twentieth century in the aspect of theoretical literary criticism. The main development trends are identified, the main features of the poetics of English-language women's prose are summarized, such as experiments with form, development of themes, connections with feminism, etc.

Key words: women's prose, literary movement, women's issues, family relationships, woman and society.

Kirish. Ayollar nasri, ayollar dramaturgiyasi va boshqa muallifi ayol fenomeni bilan aloqador yo‘nalishlar, umuman ayollar adabiyoti mavzusi kabi, ko‘pchilikni qiziqtiradigan va shu bilan birga hali hamon o‘z echimini topolmayotgan ilmiy sohaligicha qolib ketmoqda.

Milliy adabiyotshunoslikda yaratilgan ayrim tadqiqotlarda ilmiy atamalar chalkashtirib yuborilgan[1] hamda ayollar adabiyoti tushunchasini asosan ayol obrazi talqini bilan bog‘lash xolatlari kuzatiladi.[2]. Shu sababli mazkur maqolamizda tadqiqotimiz obekti bo‘lgan ayollar nasrining nazariy xususiyatlarini ilmiy asoslashga, turli talqinlarni yagona maxrajga keltirib sharhlashga xarakat qilamiz.

Adabiyotlar tahlili. Ayollar nasri bu adabiy janr ham, ma’lum mazmundagi kitoblar jamlangan javon ham emas. Ayollar nasri, umuman ayollar adabiyoti kabi alohida fenomen, betakror so‘z san’ati hodisasi bo‘lib, o‘z tarixi hamda xossalariga ega. Turli ma’lumotnomalug‘atlarda shunday talqinga ham duch kelamiz: ayollar nasri bu “olamni, ijimoiy tajribani va amaliyotni ayollar nigohi bilan bayon qiladigan adabiy matnlardir”[3]. Bunga ayollar nasri tarixini ilova qilib hamda shu yo‘nalish vakilalari ijodini o‘rganib, biz unga xos bo‘lgan bir nechta xususiyatlarni qayd etdik:

- asar muallifi va bosh qaxramoni ayol kishi;
- asarda “ayollar masalasi” ko‘tariladi;
- aksariyat xollarda asar zahirida avtobiografik maktub yotgan bo‘ladi.

Bu xususiyatlar retrospektiv-tarixiy planda qaralganda kuzga tashlanadi. Bundan tashqari ayollar nasriga xos bo‘lgan badiiy-psixologik va poetik xususiyatlarni ham ta’kidlashimiz lozim:

- psixologizm va ekspressivlik erkaklar nasriga nisbatan yuksakroq;
- tez-tez o‘zligini qurbon qilish va barchani kechirib yuborish motivi uchraydi, bu esa asarning alohida emotsional ta’sirchanligini oshiradi;
- zamonaning siyosiy va iqtisodiy muammolaridan chekinilganligi.

Tahlil va natijalar. Masala tarixiga e’tibor qaratsak, XIX asrda adabiy mehnat to‘lasincha erkaklar zimmasida bo‘lgan. Faqatgina XIX asrning o‘ttizinchi yillariga kelib dastlabki ayol-mualliflar erkak hamkasblariga nisbatan raqobat qila boshlashdi. O‘sha asrning 80-yillariga kelib esa, to‘liq adibalar asarlaridan tashkil topgan to‘plamlar chop etildi – bu ayollar nasri tarixi uchun sakrash davri bo‘lishi bilan bir qatorda, o‘ta muhim adabiy-tarixiy hodisa xisoblanadi. Asta-sekinlik bilan jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy islohotlar ayollar nasrini adabiy yo‘nalishlarning biri sifatida e’tirof etilishiga olib kelish bilan bir qatorda, adabiy olamning ajralmas to‘laqonli bo‘lagiga aylanish imkonini berdi. Ayollar nasrining shakllanish tarixi ayollar emasipatsiyasi bilan bog‘liq bo‘lgan “ayollar masalasi”dan ajralgan holda o‘rganish mumkin emas. Jorj Sand (*«Grafinya Rudolshtadt»*), Sharlotta Bronte (*«Villet»*), Jeyn Ostin (*«Emma»*) kabilar o‘z romanlarida an’anaviy-odatiy hatti-xarakatdan farqlanuvchi yangicha xolatlarni tasvirlay boshlagan sohaning ilk kashshoflari edilar. Muallif-ayolga nisbatan munosabat vaqt o‘tishi bilan turlicha o‘zgarib turadi. Agar o‘n to‘qqizinchi asrning boshida unga nisbatan qisman bepisandlik va xayrihohlik bilan munosabatda bo‘lingan bo‘lsa, qisqa vaqt ichida ayollar uchun to‘liq legal bo‘lgan imkoniyatlar paydo bo‘ladi: tarjima ishi va bolalar uchun asarlar yaratish. Ammo o‘n to‘qqizinchi asrning o‘ttizinchi yillarida ayol-adibalar tanqidi yana keskin tus olib, ochiqdan ochiq kulgu va kinoyaga cho‘lg‘anadi.

Oltmishinchi yillarga kelib vaziyat yana uzgarib ketadi: ayollarning erkinlik xarakati qanchalik keng quloq yoysa, xudda shu tarzda ayollarning adabiy mehnati erkinlashib, e’tirof etiladi. Asr so‘ngida ayollar adabiyotida ko‘plab nasrda ijod qiladigan adibalar nomini ko‘ramiz.

Ayolning o‘z taqdirini o‘zi belgilashi adabiyot maydoniga yangidan yangi mavzularni olib chiqdi. Ayollar nasri yana istalgan mavzuni ishlay boshladi: maishiy, ijtimoiy, falsafiy. Mazmun izlash, o‘zlikni anglash, jamiyat va shaxs munosabatlari, muhit va vaziyat ta’sirida shaxsning uzgarishi, o‘lim va xayot masalasi, va albatta, ular qatorida oila, muxabbat, bolalar, ulg‘ayish, uy-joy motivi kabilar ham keng ishlandi. Ayollar nasri fenomeni to‘g‘risida gapirar ekanmiz, ingliz adabiyotida o‘z davrida ayollar nasri rivojiga muhim hissa bo‘lib qo‘shilgan Luiza Mey Olkotning “Kichkina ayollar”, Jeyn Ostinning “G‘urur va irim”, Enni Berrouz va Meri SHafferning “Kitob va kartoshka qoldig‘idan pirogsevarlar klubi” asarlarini alohida eslatmoq joiz.

Ayollar adabiyoti yo‘nalishining ilk vakillari yaratib ketgan novellalar, muemuarlar, kundaliklar keyingi avlod vakillari ijodida yoki hozirgi zamonda hikoya, qissa, hasbu-hol – romanlari va esselariga aylanib bordi.

XX asrga kelib o‘z faoliyatida ayollar nasrini ustuvor biladigan yaxlit «No Kidding Press» kabi nariyot uylari paydo bo‘ldi. «Common place» nashriyoti esa XIX-XX asrlarda yashab ijod qilgan, ammo hozirda nomlari unutilib borayotgan adibalarning memuarlari va badiiy nasrini chop etishga bag‘ishlangan «Θ» seriyasini nashr etishni boshlab yuborgan, ularda so‘z san’ati borasidagi ayollar tajribasi aks etgan.

Ta’kidlashimiz joizki, o‘tgan asrning oxiriga kelib, ayollar nasri alohida adabiy hodisa ekanligi e’tirof etiladi. Uni tahlil qilishadi va muhokamaga qo‘yishadi, tadqiqotlar, bahs-munazaralar o‘tkazilib, turli mutaxassislar ishti rok etishadi: filologlar, sotsiologlar, tarixchilar. Ayollar nasrining alohida o‘z tili, estetikasi, tasvir uslubi bormi? Kimdir bu savollarga barchasi bor, mavjud deb javob bersa, kimdir adabiyotni genderlik jihatdan bo‘lish shartli deygan xulosaga keladi. Birovlar, ayollar nasri deyilganda muallif ayol kishi bo‘lgan har qanday asarni qamraydi, deb o‘ylasa (bu aslida xato qarash), boshqalar bu tushuncha zahirida feminizm va patriarxal turmush tarzi masalalarini qamrovchi matnlarni jamlamoqchi bo‘ladi. Nuqtai nazarlarning turlicha ekanligidan qat’iy nazar, ishonch bilan ta’kidlashimiz lozimki, ayollar nasri - xayot va san’atning to‘laqonli aks ettirilishidir. Unga tajribalar va novatorlik, badiiy ideal axtarish hamda turli janrlar va oqimlarga xos xususiyatlarni sintezlash xos. Bu badiiy adabiyotni ayollarga xos takrorlanmas o‘ziga xoslik bilan, aynan o‘sha borliqni ayollar nigohi bilan tasvirlash xisobidan, boyitish demakdir.

“Ayollar nasri” atamasini ilmiy asosda o‘rganishga I.M.Popova, E.V.Lyubeznaya [4], L.F.Alekseeva, V.Kilyakov, N.A. Turanin[5] va boshqa adabiyotshunoslar e’tiboriga tushgan.

XX asr ingliz ayollar nasri o‘ziga yarasha boy va rangbarang adabiy oqim bo‘lib, bir qator iqtidorli adibalar ijodini qamraydi. Ulardan ba’zilari o‘z diqqat-e’tiborlarini ijtimoiy masalalarda va xotin-qizlarning jamiyatdagi o‘rni va roli masalalarida aynan ayollar tajribasiga

qaratishadi. Bunga misol tariqasida nomlari bashariyat adabiyoti va madaniyati tarixida saqlanib qolgan bir qator ijodkorlar va ularning asarlarini sanab o‘tish mumkin: qaxramonlarining ichki monologlari tafakkur oqimi usuliga tayanganligi, original tuzilishi bilan kitobxonlarga tanilgan V.Vulfning “Missis Dellouey” (Mrs. Dalloway), zamon va oilaviy munosabatlar masalasini o‘rganishga bag‘ishlangan “Mayoq tomon” (To the Lighthouse) romanlari, Jorjiya O’Kifningfeminizm, ayollik jozibasi va madaniy islohotlar mavzulari ishlangan “Tumanli-moviy tog‘lar” (The Blue Mountains) romani, Joys Kerol Outsning badiiy matn shakli ustidan tajribalar o‘tkazgan va o‘zlikni anglash masalasini ko‘targan “Bo‘lib tashla va hukmronlik qil” (The Golden Notebook) asari, Silviya Platxning jamiyatda depressiya va ayollar roli mavzusini yoritgan “Kuzguli qalpoq” (The Bell Jar) avtobiografik romani, Margaret Etvudning ayol muteligi va siyosiy din masalasini kutarib chiqqan “Xizmatkor qiz hikoyasi” (The Handmaid's Tale) futuristik romani kabilarni ko‘rsatish mumkin. Albatta bu juda ulkan, Amerika va Evropa qitasiga sochilib ketgan ingliz tilida yaratilgan ayollar nasrining boy merosidan ayrim parchalar xolos.Qayd etilganidek, ularning har biri ayollar tajribasini turli aspektlar o‘rganadi va o‘z davri adabiyotiga munosib hissa bo‘lib qo‘shiladi.

Xulosa. XX asr ingliz ayollar nasriga, jahon hamjamiyatida sodir bo‘lgan ijtimoiy-madaniy, iqtisodiy-siyosiy o‘zgarishlar, ayollar roli va o‘rnining mazmun-mohiyati isloh bo‘lganligini aks ettiruvchi yuksak badiiylik bilan birga, adabiy uslub va shakllarning evolyusiyasini ham ifodalash xosdir. Bu jihatlarni ko‘plab adibalarning ayollar nasriga tegishli deb e’tirof etilgan badiiy matnlarini o‘rganish, qiyoslash va ularga bag‘ishlangan ba’zi tadqiqotlar xulosalarini umumlashtirish asnosida, xulosa o‘rnida, ingliz ayollar nasriga xos asosiy xususiyatlar sifatida quyidagilarni sanash mumkin:

1. *Feministik mavzular:* aksariyat ayol mualliflar-adibalar feministik mavzularni diqqat-e’tibor bilan o‘rganishadi, jamiyatdagi ayollarning roli bilan bog‘liq bo‘lgan tengsizlik, ijtimoiy diskriminatsiya va cheklovlar muammolarini axtarishadi;
2. *Badiiy matn shakli-janrlari bilan tajriba:* ayrim adabalar, masalan Virjiniya vulf kabilar, ijodik jasorat ko‘rsatishib an’anaviy badiiy matn shakli ustidan tajriba o‘tkazishardi, bunda personajlarining ichki kechinmalarini aks ettirish maqsadida tafakkur oqimi va boshqa innovatsion usullardan foydalanishardi.
3. *Personajlar psixologiyasini o‘rganish:* aksariyat asarlarda ayol personajlar psixologiyasini, ichki ziddiyatlarini va hissiy kechinmalarini chuqur o‘rganish masalasiga asosiy e’tiborlarini qaratishadi.
4. *Oilaviy munosabatlar va undagi onaning roli:* ingliz ayollar nasrining muhim mavzusi onalik kontekstida tasvirlangan oilaviy munosabatlar masalasi bo‘lib, ayrim adibalar zamonaviy onalik rolining murakkabligi va uning ayol xayotiga ta’sirini o‘rganishadi.
5. *Ijtimoiy-madaniy me’yorlar tanqidi:* ayol adibalar tmavjud ijtimoiy-madaniy stereotiplar va me’yorlarni faol tanqid qilishar va bu bilan jins, sinf va irq bilan bog‘liq masalalarni muhokama qilishga chorlashardi.

6. *Ko‘p ovozlilik*: ayrim asarlar o‘zida ko‘plab turlicha ovozlilar va nuqtai nazarlarni qamrab, mualliflariga ayollarcha tajribalarning xilmaxillik imkoniyatini berishardi.

7. *Janrlar qorishuvi*: ba’zi hollarda mualliflar turli tuman janrlarni aralashtirib, qorishtirib, noyob asarlar yaratishganligi kuzatiladi; ularda roman, avtobiografiya, fentezi va xatto ilmiy fantastika unsurlaridan aralash foydalanilgan.

Sanab o‘tilgan badiiy o‘ziga xos xususiyatlar XX asr ingliz ayollar nasrining serqirra, boy va turlicha poetik xususiyatlarga ega merosini tashkil etib, adabiy va madaniy tarixda o‘zining munosib izini qoldirgan.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Muhammedova N. Margaret Drtbbbl asarlarida ayol obrazi va uning ijtimoiy maqomining o‘ziga xosligi: Filol. fan.fals.dok. diss.- T.,2019.-177 bb.; Muhammedova X. Charlz Dikkens asarlarida ayol xarakteri tipologiyasi: Filol. fan.fals.dok. diss.- T.,2019.-169 bb.; Fayzullaeva U. Virginia Vulf romanlarida ayol ichki dunyosining tasvirlanishi: Filol. fan.fals.dok. diss.-Samarqand,2020.-175 bb.va boshqalar.

2. Chorlieva Sh.Sh. Ingliz “yo‘qotilgan avlod” adabiyotida ayollar obrazining badiiy o‘ziga xosligi (Richard Odington va Vera Britten asarlari misolida).- PhDdissertatsiyasiavtoreferati.-T.-2023 y.-59 s.

3.Тезаурус терминологии гендерных исследований.-М.:Восток-Запад:Женские Инновационные Проекты. 2003.Автор: А. А. Денисова.

4. Феномен современной «женской прозы» // Вестник ТГТУ. 2008. Том 14. № 4. Transactions TSTU

5. Алексеева, Л.Ф. Литературная жизнь 1970–2000-х гг. / Л.Ф. Алексеева //История русской литературы XX в. В 4-х кн. – М., 2008. – Кн. 4. – С. 5–19.